**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Rektor G.Rixsiyeva

2021-yil "28" 08

# JAHON MAMLAKATLARIDA OSIYO DIASPORALARINING TUTGAN O'RNI

## FANINING O'QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | - | San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 220 000 | - | Gumanitar fanlar |
| **Mutaxassislik:** | 70220301 | - | Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha) |

**Toshkent – 2021**

| Fan/modul kodi<br>JMOD104 | | O'quv yili<br>2021-2022 | Semestr<br>1 | ECTS – Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Jahon mamlakatlarida Osiyo diasporalarining tutgan o'rni | | 60 | 60 | 120 |

**2.** **I.Fanning mazmuni**

Mazkur fan talabalarga dunyodagi Osiyo diasporalari haqida ma'lumot berish, ular bilan bog'liq ijtimoiy, siyosiy va mentalligiga xos muammolarni tahlil qilish maqsadida taqdim qilingan.

Kurs davomida talabalar, Yevropa va AQShdagi yirik Osiyo diasporalari xususan, hind, xitoy, arab, kurd, afg'on, pokistonliklar, eron va o'rta osiyoliklar diasporasi haqida ma'lumot oladi. Shuningdek diasporalar insoniyat tarixining ajralmas bir qismi, zamonaviy xalqaro munosabatlarning aktori, madaniy o'ziga xoslikka oid ilmiy tadqiqotlarning muhim bir qismi hamda milliy va mintaqaviy nizolarning omili sifatida ham ko'rib chiqiladi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Diasporologiyaga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari. Diaspora tushunchasi va klassifikatsiyasi**

1970-yillardan boshlab diasporalarni tadqiq etishning boshlanishi va XXI asr boshlarida unga bo'lgan ilmiy qiziqishning kuchayishi. Dj. Armstrong (D. Armstrong), R. Brubeyker (R. Brubaker), M. Dabag (M. Dabag), Dj. Klifford (J. Clifford), U. Konner (W. Conner), R.Koen (R. Cohen), U. Safran (W. Safran), G. Sheffer (G. Sheffer), M. Esman (M.Esman) kabi G'arb olimlari tomonidan diasporalarning o'rganilishi. Diaspora tarix, sosiologiya, etnologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik predmetlarining predmeti sifatida. Etnik guruh va diaspora tushunchasi. Diasporalar klassifikatsiyasi va tipologiyasi.

**2-mavzu. Migratsiya va diasporalar. Transchegaraviy ko'chishlar, ularning masshtabi va dinamikasi hamda Osiyo diasporalari**

Globallashuv davrida jahonda migratsiya jarayonlarining kuchayishi. Yevropa mamlakatlari va AQShda aholining demografik tuzilishi, etnik va diniy tarkibiga diasporalarning ta'siri. Mamlakatlar ichki va tashqi siyosatiga diasporalarning ta'siri. Osiyo diasporalarining ma'lum bir mamlakatda joylashuvi, ularning etno-ijtimoiy tarkibi: Osiyo diasporalari sonining oshishi va ularning institusialiazasiyasi. Jahon mamlakatlarida migrantlarning etno-ijtimoiy tarkibi va kasblari.

**3-mavzu. Jahon mamlakatlaridagi arab diasporalari.**

Arab mamlakatlaridan jahonning turli davlatlari hududiga ko'chib o'tgan arablar, ularning tarixiy va zamonaviy migratsiyasi: sabablari, jarayoni va oqibatlari. Arab dunyosi – Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va arab ligasi davlatlaridan ketgan immigrantlarning AQSh, Frantsiya, Meksika, Isroil va boshqa mintaqalar davlatlari hududlarida joylashuvi va hayoti.

**4-mavzu. Hind diasporalari va ularning dunyo mamlakatlari bo'ylab joylashuvi.**

Xindlarning dunyo mamlakatlari bo'ylab joylashuvi. Hintdlarning tarixiy davrlardagi migratsiyasi sabablari va oqibatlari. Hind diasporasi – eng tez ko'payayotgan diasporalardan biri. Hind immigrantlarining xorijdagi hayoti va faoliyati. XIX asrdagi Britaniya imperiyasi mustamlakachiligining hind diasporalarining shakllanishidagi o'rni. Hind diasporasi – AQShdagi eng tez ko'payib borayotgan diaspora. Dunyoning boshqa mintaqalaridagi hind diasporalari.

**5-mavzu. Jahon davlatlaridagi xitoy diasporalari.**

Xitoy diasporasi (xuatsyao) tarkibiga kiruvchi xitoyliklar – boshqa davlatlar fuqarolari. Xitoyliklarning dunyodagi eng yirik sonli diaspora sifatida tarqalishi. Dastlabki xitoy migrantlari duch kelgan muammolar. Xitoyliklarning chet mamlakatlarda xizmat ko'rsatish hamda kichik savdo sohasidagi faoliyati. Xitoy diasporasining jahon mamlakatlari iqtisodiyotida tutgan o'rni. Xitoyliklarning zamonaviy migratsion jarayonlargdagi ishtiroki va o'rni.

**6-mavzu. Dunyo bo'ylab tarqalgan koreyaliklar.**

Koreys xalqlarining tarixiy va zamonaviy migratsiyasi. Rossiya, Yaponiya va Xitoydagi koreys diasporalari. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistondagi koreys diasporalari. Koreyslarningdunyoning boshqa mintaqalari bo'ylab joylashuvi: tarixi va zamonaviy holati. Koreys diasporasining o'ziga xos jihatlari.

**7-mavzu. Jahonning ko'p sonli osiyolik immigrantlar yashaydigan davlatlari.**

Jahonning eng ko'p diasporalar joylashgan mintaqalari va hududlari. Bunga ta'sir etgan omillar. Mustamlakachilik siyosati va tuzumining diasporalar shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri va uning oqibatlari.

**8-mavzu. Dunyo davlatlaridagi osiyoliklar (eronliklar, turklar, armanlar va boshqalar).**

Dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan, kelib chiqishi osiyolik bo'lgan xalqlar va diasporalar. Ularga munosabat masalalari. Turk, eroniy, arman va boshqa xalqlar diasporalari, migratsiyasi va bunga sabab bo'lgan



| | |
|---|---|
| | 8. Тишков В.А. Реквием по этносу: Исследования по социально-культурной антропологии. – М., 2003. – 544 с.<br>9. Brubaker R. Accidental diasporas and external "homelands" in Central and Eastern Europe: Past a. present. – Wien., 2000. – 19 p.<br>10. Trends in international migrant stock: The 2008 Revision. CD-ROM Documentation. POP/DB/MIG/Stock/Rev/2008 – July 2009 //http://www.un.org/esa/population/publications/migration/UN_MigStock_2008.pdf<br><br>**Axborot manbalari**<br><br>1. www.globalaffairs.com<br>2. www.lenta.ru<br>3. www.mid.ru<br>4. www.strana.ru<br>5. www.whitehouse.gov/news/releases<br>6. http://asiapacific.narod.ru/countries/china/special_way_china.htm |
| **7.** | O'quv dasturi "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "26" 08 dagi "1" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil "28" 08 dagi "1" - sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>A. Z. Tog'ayeva - O'zR FA Tarix instituti katta ilmiy xodimi, t.f.n. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>S.B.Shodmanova - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasi mudiri, professor, t.f.d.<br>Shamsiyeva I.M. - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi |

| | |
|---|---|
| | • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ким Г.Н. Основы диаспорологии. Учебное пособие. Алматы: «Қазақ университеті», 2018. – 248 с.<br>2. Статистика международной миграции. Практическое руководство для стран Восточной Европы и центральной Азии. ООН, Женева, 2011. - 102с.<br>3. Хакимова К.А. Россия и страны Востока: векторы взаимодействия и сотрудничества. Уфа-2014<br>4. Е.С. Анохина. «Новая» Китайская миграция и политика КНР по ее регулированию. Томск 2012. 248 с.<br>5. Иванов С.М. Иракский Курдистан на современном этапе (1991–2011 гг.). – М.: ИМЭМО РАН, 2011. – 86 с.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2017.- 104 b.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: "O'zbekiston", 2017.- 48 b.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.<br>5. Левин З.И. Менталитет диаспоры (системный и социокультурный анализ). – М., 2001. – 170 с.<br>6. Милитарев А.Ю. О содержании термина "диаспора" (к разработке дефиниции) // Диаспоры. – М., 1999. – № 1. – С. 24–33.<br>7. Попков В.Д. Феномен этнических диаспор. – М., 2003. – 340с. Режим доступа: http://www.tovievich.ru/book/12/168/1.htm |



| | |
|---|---|
| | omillar. Ularning jahon mamlakatlaridagi o'rni.<br>**9- mavzu. Markaziy Osiyo xalqlarining jahon mamlakatlari bo'ylab tarqalishi: tarix va hozirgi zamon.**<br>Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy migratsiyasi va buning sabablari. O'tgan asrning so'nggi choragida yuz bergan siyosiy jarayonlar va sotsialistik tuzum inqirozining Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga ta'sii va migratsiya jarayonlarining kuchayishi. Globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining jahon davlatlaridagi immigratsiyasi. Mehnat migratsiyasi, buning sabablari va hozirgi kundagi holati. Migrantlarga munosabat masalalari.<br>**10-mavzu. O'zbekistonda diasporologiya fani, diasporalar va ularga munosabat masalalari. Jahon mamlakatlaridagi o'zbek immigrantlari.**<br>Mustaqillikkacha O'zbekistonda diasporologiya alohida yo'nalish sifatida e'tirof etilmaganligi. Mustaqillik yillaridagi diasporalarga oid tadqiqotlar, ushbu yo'nalishning fan sifatida e'tirof qilinishi va ijtimoiy-siyosiy sohalarda olib borilayotgan tadqiqotlar. Diasporalar tarixining o'rganilishi va bu borada faoliyat olib borayotgan olimlar. Diasporologiyaning muhim masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarning e'lon qilinishi. Respublikadagi diasporalar holati va bag'rikenglik tamoyillari.<br>**11-mavzu. Dunyo hamjamiyatida Osiyo diasporalariga munosabat masalalari.**<br>Yevropa davlatlari va AQShda osiyolik migrantlarga munosabat. Migrantlarning Yevropa davlatlari va AQShga kelishi "xavf" tug'diradimi? Islomofobiya va arabofobiya. "To'g'ri" migrant qanday bo'lishi kerak? Osiyolik immigrantlarga turli mamlakatlarda munosabatdagi farqlar va ularning sabablari.<br>**12-mavzu. Zamonaviy xalqaro migratsiya jarayonlarining sabablari va oqibatlari.**<br>Globallashuv davrida migratsiya muammolari va "yangi diaspora"larning shakllanish jarayoni. Globallashuv sharoitida chegara siyosatida shaffoflikning kuchayishi va uning oqibatlari. Osiyo xalqlarining zamonaviy immigratsiyasi masalalari. Mehnat migrantlari. Turli davlatlarda migrantlarga munosabat masalasi.<br>**13-mavzu. "O'z vatani yo'q" diasporalar.**<br>O'z vatanidan o'zga hududda yashayotgan immigrantlar yoki etnik birliklar va tarixiy vatani umuman yo'q bo'lib ketgan diasporalar. O'z nomini yo'qotgan Sovet Ittifoqi, GDR, Yugoslaviya,Chexoslaviya kabi davlatlarda yashagan xalqlar. Qadimda o'z yurtlaridan ayrilgan diasporalar taqdiri. Kurdlar va lo'li (tsigan)larning dunyo mamlakatlari bo'ylab joylashuvi. Turkiya, Eron, Iroq, Suriyadagi kurdlar. Shimoliy Afrika, Amerika, |

Avstraliya va boshqa hududlardagi lo'lilar diasporasi.

**14-mavzu. Postsovet davri diasporalari.**

XX asrning so'nggi choragida sovet davlati va sotsialistik tuzum inqirozining migratsiya jarayonlariga ta'siri. Sobiq sovet davlatida immigrantlarga munosabat masalalari. Xalqaro miqyosdagi ommaviy ko'chishlar va ularning yangi diasporalar shakllanishidagi o'rni. Diasporalar muammolari.

**15-mavzu. Immigratsiya muammolari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari**

Ishsizlik va immigrantlar. Ijtimoiy himoya va undagi muammolar. Til va o'quv muassasalaridagi muammolar. Shaharlarning obro'li va ishchi kvartallari o'rtasidagi tavofut hamda diasporalar. Immigrantlar o'rtasida qonunbuzarlik holatlari. Etnik anklavlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Immigrantlarning hududiy kontsentratsiyasi va uning salbiy oqibatlari.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Diasporologiyaga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari.
2. Diaspora tushunchasi va klassifikatsiyasi
2.Migratsiya va diasporalar. Transchegaraviy ko'chishlar, ularning masshtabi va dinamikasi hamda Osiyo diasporalari
3. Jahon mamlakatlaridagi arab diasporalari.
4.Hind diasporalari va ularning dunyo mamlakatlari bo'ylab joylashuvi.
5. Jahon davlatlaridagi xitoy diasporalari.
6. Dunyo bo'ylab tarqalgan koreyaliklar.
7. Dunyo davlatlaridagi osiyoliklar (eronliklar, turklar, armanlar va boshqalar).
8. Dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan, kelib chiqishi osiyolik bo'lgan xalqlar va diasporalar.
9. Markaziy Osiyo xalqlarining jahon mamlakatlari bo'ylab tarqalishi: tarix va hozirgi zamon.
10. O'zbekistonda diasporologiya fani, diasporalar va ularga munosabat masalalari. Jahon mamlakatlaridagi o'zbek immigrantlari.
11. Dunyo hamjamiyatida Osiyo diasporalariga munosabat masalalari.
12. Zamonaviy xalqaro migratsiya jarayonlarining sabablari va oqibatlari.
13. "O'z vatani yo'q" diasporalar.
14. Postsovet davri diasporalari.
15. Immigratsiya muammolari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi



maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. G'arbiy Yevropada arab diasporasi
2. G'arbiy Yevropada Turk diasporasi
3. AQShda Xitoy Diasporasi
4. AQShda Hind diasporasi
5. Rossiyada arman diasporasi
6. Yevropada kurd diasporasi
7. Dubay va Saudiya Arabistonidagi afg'on diasporasi
8. Dubay va Saudiya Arabistonida Pokistonliklar
9. Dubayning migrasion manzarasi
10. Islomofobiya va arabofobiya
11. Diasporalar va til muammolari
12. Diasporalar va milliy o'zlik masalasi
13. Milliy madaniyat markazlari xalqaro munosabatlarning aktori sifatida
14. Milliy madaniy markazlarning diasporalar hayotidagi ahamiyati
15. Diasporalar va ta'lim muammolari
16. Diaspora: din va e'tiqod muammolari
17. Disaporalar xalqaro munosabatlarining aktori sifatida

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**3.** **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Magistr bilishi kerak:**

- Jahon mamlakatlarida Osiyo diasporalarining tutgan o'rni fanining maqsad va vazifalari fan ta'rifi va asosiy xususiyatlari, boshqa fanlar bilan bog'likliki va fanning jamiyatdagi o'rni, gender munosabatlarining ta'rifi va tasnifi, ularni o'rganish strukturasi va asosiy usullari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- Jahon mamlakatlarida Osiyo diasporalarining tutgan o'rni mavzusini tanlash va muammolarni shakllantirish va ularni asoslash usullari, visual elementlarni ijtimoiy-siyosiy va nazariy asoslash, ilmiy manbalar bilan ishlash, zamonaviy axborot qidiruv usullari, ma'lumotlarni tahlil qilish va ilmiy tadqiqot masalalarini hal etishda ulardan foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***
- dunyo mamlakatlarida diasporalarning taraqqiyot xususiyatlariga oid ilmiy adabiyotlarini tavsiflash, visual tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish va amaliyotda qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi*** **kerak.**

**4.** **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;